

## Tarixi

Gidromelioratsiya fakulteti 1923 yilda Turkiston Davlat universitetining texnika fakulteti tarkibida "Melioratsiya muhandisligi" mutaxassisligi bo'yicha soha kadrlarini tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. Fakultet tashkil etilgan ilk davrlarda 49 nafar professor-o'qituvchilar 274 talabalarga melioratsiya muhandisligi bo'yicha bilim bera boshlagan. Gidromelioratsiya fakulteti tarixi universitetning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, 1934 yil 16 noyabrda «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlari instituti» tarkibida faoliyat ko'rsata boshlagan. Fakultetning tashkil etilishi, rivojlanishi, O'rta Osiyo miqyosida nufuzli ilmiy markaz sifatida shakllanishida etuk olimlar, yirik mutaxassislarning hissalarini beqiyosdir. Ayniqsa V.D.Jurin, T.N.Qori-Niyozov, A.N.Gostunskiy, B.D.Korjavin, X.A.Axmedov, A.N.Askochenskiy, V.V.Poslavskiy, N.A.Yanishevskiy, V.F.Bulayevskiy, F.P.Morgunenko, Ye.I.Zamarin, N.V.Makridin, S.T.Altunin, T.A.Kolpakovalarning sayi-harakatlari tufayli fakultet ilm-ta'lim yo'nalishlarda etakchilik qilgan. Bugungi kunda fakultet tarkibida "Gidravlika va gidroinformatika", «Gidrologiya va gidrogeologiya», «Irrigatsiya va melioratsiya», «Gidromeliorativ tizimlaridan foydalanish», «Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalashtirish», «Professional ta'lim», «Hayot faoliyat xavfsizligi», «Fizika va kimyo» kafedralari va «Ekogis» markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Fakultetda kafedra va markazlarning tajribali professor-o'qituvchilari talabalar va magistrlar uchun zamonaviy talablar darajasida ilmiy tadqiqot va ta'lim jarayoni tashkil etilgan.

Oxirgi yillarda fakultetda «Suv xo'jaligi va melioratsiya», «Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish», «Gidrologiya», «Meliorativ gidrogeologiya» «Professional ta'lim», «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni mexanizatsiyalashtirish», «Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi», Materiallarshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlab kelayotgan bo'lsa, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublika Prezidentining 10 dekabrda PQ-42 sonli qaroriga muvofiq «Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish» ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga quyildi. Ushbu ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bugungi kunda 1200 nafardan ortiq talabalar zamonaviy sharoitda tahsil olmoqdalar. Shuningdek fakultet halqaro hamkorlik borasida AQSh, Yevropa mamlakatlari, MDX va Sharq mamlakatlarining nufuzli ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlari bilan keng qamrovli ilmiy, metodik hamda academic mobillik yo'nalishlarida samarali aloqa tizimi yo'lga qo'yilgan.